

**O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida
2026-yilning birinchi yarim yilligida aniqlangan Manfaatlar to‘qnashuvi
to‘g‘risida MA’LUMOT**

Qishloq xo‘jaligi vazirligida Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish, Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini barvaqt aniqlash bo‘yicha bir qator ishlar amlga oshirilib kelinmoqda.

Xususan:

2026-yilning yanvar-fevral oylarida vazirlik tizimidagi barcha boshqaruv xodimlaridan Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi to‘g‘risida Delaratsiyalar olindi;

olingan Deklaratsiyalar maxsus sayt va platformalar orqali tekshirilib chiqildi va xodimlarning Qishloq xo‘jaligi sohasiga (*boshqa sohalar xam o‘rganildi*) aloqador tadbirkorlik sub’ektlarida ishtiroklari aniqlanmadi;

tizimdagi rahbarlar va xodimlarni xuquqiy ongini, mas’uliyatini va javobgarligini oshirish maqsadida 2026-yilning 19-martida bo‘lib o‘tgan vazirlikning kengaytirilgan Xay’at yig‘ilishida Korrupsiyaga qarshi kurashish, Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik va Korrupsiyaga murosasizlarcha munosabatda bo‘lish yuzasidan masalalar qo‘yildi va muhokamlar o‘tkazildi, yig‘ilish yakuni bilan kelgusidagi vazifalar beogilanib olindi;

2026-yilning birinchi yarim yilligida vazirlik markaziy apparati, hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida mehnat faoliyatini olib borayotgan 712 nafar boshqaruv xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasining “Virtual akademiya” platformasida malaka oshirdilar va sertifikatga ega boldilar.

2026-yilning birinchi yarim yilligida Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida mehnat faoliyatini olib borayotgan xodimlar tomonidan MANFAATLAR TO‘QNASHUVI holatlari sodir etilmadi, o‘z o‘rnida ichki idoraviy tekshiruvlar o‘tkazilishiga ehtiyoj mavjud bo‘lmadi.

**Korrupsiyaga qarshi
kurashish bo‘limi boshlig‘i**



Sh.Teshaboyev
09.06.2026 yil.